



MUSIQA SAVODINI O'TISH VA MUSIQALI RITMIK HARAKATLAR BAJARISHGA DOIR METODIK TAVSIYALAR

Mo'minova Qunduz Yusufovna

Namangan viloyati, Namanagan shahar 16-umumtalim
maktabi, musiqa o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7976701>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 22-May 2023 yil

Ma'qullandi: 24-May 2023 yil

Nashr qilindi: 27-May 2023 yil

KEY WORDS

*musiqa, faoliyat, ritmik
harakatlar, tizim, asar,
metodlar.*

ABSTRACT

Musiqa madaniyati darslari mazmunida o'quvchilarning musiqa savodxonligini tarkib toptirish muhim maqsadlardan biri bo'lib hisoblanadi. Chunki, musiqa savodi musiqa darsining ta'limiy vazifasini bajaradi. Ushbu maqolada musiqa savodini o'tish va musiqali ritmik harakatlar bajarishga doir metodik tavsiyalar haqida so'z yuritiladi.

Asosiy qism

Musiqa savodi faoliyatining negizi va pedagogik maqsadi, yangi dastur bo'yicha berilgan mavzularni savodli tahlil qilish orqali amalga oshiriladi. Musiqa savodi musiqa san'ati haqidagi boshlang'ich tushunchalar tizimidan iborat, shuning uchun ham, musiqa savodi darsning mustaqil musiqiy faoliyati tarzida emas, balki butun dars davomida, ayniqsa, jamoa bo'lib qo'shiq kuylash va musiqa tinglash uchun asarlarni o'zlashtirish jarayonida o'rganiladi.

Musiqa savodi o'quvchilar musiqa bilimining ongli takomillashuvida katta yordan beradi. Musiqa savodining kaliti va pedagogik ahamiyati, tanlangan qo'shiqlar va tinglashga doir asarlarni ongli ravishda idrok etib, ijro etish qoidalariga doir yangi tushunchalar hosil qiladi.

Har bir darsda o'quvchilarning musiqa haqidagi bilimlari boyib boradi. O'quvchilarning musiqiy taassurotlari va tajribalarining o'sishi, musiqani hayot bilan bog'lashda va musiqaning eng oddiy qonuniyatlari haqidagi bilim doiralarini kengaytirishda muhim ahamiyatga ega.

Musiqa tinglash madaniyatini rivojlantirishga doir metodik tavsiyalar musiqani tinglay bilish va undan zavqlana olish ham katta san'at hisoblanadi.

Bu borada sharq mutafakkirlari ham o'z fikrlarini quydagicha talqin etganliklarini eslatib o'tish o'rinlidir.

Sharq allomalri, shayx-ul mashoqiylar musiqa san'atiga yuqori baho berib, uning inson ruhiga ma'naviy quvvat bo'lib xizmat ilishini alohida ta'kidlaganlar. Xususan, Hazrat Abu bakr Buxoriy-Kalobodiy musiqa tovushlari-nag'malarini ta'riflab, ularni **"jon uvvati va ruh ozig'ittirur. Agar jon nag; madan uvvat topsa, o'z maqomi sari ishrof aylaydi, ulmaqom ila mashg'ul bo'lardi"** deb yozadi.

Demak, musiqa insonga ma'naviy oziqa bo'lishi bilan birga uni tarbiyalashda ham

ahamiyatli ekan. Chunki, ruhi titik, barkamol kishi o'zida yaxshi insoniy fazilatlarini mujassam eta oladi.



Abu Nasr Forobiy.


Vatandoshimiz Abu Nasr Farobiyning bu xususda fikri ham e'toborlidir. **"Musiqqa ilmi shu ma'noda foydaliki, u o'z muozanatini yo'otgan odamlar halqini tartibga keltiradi. Mukammallikka etmagan xulqni mukammal qiladi va muvozanatda bo'lgan idamlar xulqining muozanatini salab turadi. Bu ilm tananing salomatligi uchun ham foydalidir. Chunki, tana kasal bo'lsa, ruh so'ladi, tana to'siqqa uchrasa, ruh ham to'siqqa uchraydi. Shuning uchun ovozlarning ta'siri bilan ruhni sog'aytirish yordamida tana sog'aytiriladi"**...

Alloma Abu Ali Ibn Sinoning musiqaning katta tarbiyaviy ahamiyati haida

shunday deydi: **"Bolaning mijozini kuchaytirmoq uchun unga ikki narsani qilmoq kerak. Biri, bolani asta-sekin tebratish, ikkinchisi esa, uni uhlatish uchun aytish odat bo'lib olgan musiqqa va allalashdir. Shu ikkisini qabul qilish miqdoriga qarab bolaning tanasi bilan badan tarbiyaga va ruhi bilan musiqaga bo'lgan is'tedodini xosil qilinadi"**.



Abu Ali ibn Sino.



Alisher Navoiy.

Bu o'rinda Xazrat A.Naviy so'zlari bag'oyat ta'sirlidir.

"Otashin yuzluk mug'anniyki, xilqidin muloyim surud chiqorg'ay, Xol ahlini kuygan bag'ridin dud chiqorg'ay". Ya'ni, ovozi chiroyli xonandaning yoqimli ashulasi muhabbat ahliniung qalbini yondiradi, kuydiradi.

Darhaqiqat, musiqqa madaniyati darslarining barcha faoliyatlari jarayonida, musiqani tinglab, uni idrok etadi, ammo musiqqa darslarining musiqqa tinglash qismi oldida, o'ziga xos jiddiy vazifalar turadi. Avvalo, shuni eslatish lozimki, insonda kuylash imkoniyatlariga ko'ra, tinglash imkoniyatlari ancha keng bo'ladi.

Masalan: milliy cholg'u asboblari ansambli, orkestr, xor, yakka cholg'u, cholg'u ijrosidagi asarlarni kuylab emas, balki faqat tinglab idrok etish mumkin. Shuning uchun ham musiqqa tinglash jarayonida o'quvchilarning badiiy idroki yaxshi rivojlanib boradi.

Musiqqa madaniyati darslarida musiqqa tinglash uchun quyidagi talablarga ko'ra asarlarni tanlash tavsiya etiladi.

- o'quvchilarning idrokiga mos xalq, mumtoz va zamonaviy musiqiy asarlarni tinglash.
- o'quvchilarning musiqani idrok etish va musiqiy asarda tasvir etilgan badiiylikni his qilish qobiliyatlarini rivojlantirish.

- musiqa haqida boshlang'ich ma'lumotlar berish, tinglangan asarlar nomlarini eslash, ularning mazmuni, xarakteri va ifoda vositalarining farqini bilish hamda tinglangan asarga ma'lum darajada baho bera olish.

- musiqiy asarlarni ishtiyoq bilan tinglash va eslash, olgan taassurotlar haqida o'ylash va fikr bildirish.

- musiqa tinglashda turg'un diqqat-e'tiborni va tinglash madaniyatini, boshlang'ich elementlarni shakllantirish.

- musiqiy didni shakllantirishga oid qiziqarli, mazmunli asarlarni tinglash.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining diqqat-e'tibori uncha barqaror bo'lmasligi sababli, ular yorqin yangraydigan kichik hajmdagi musiqiy asarlarni idrok etishga qodir bo'ladilar. Ular, ayniqsa, kichik hajmdagi qo'shiqlarni yaxshi idrok etadilar, chunonchi, so'z va ohang birligi musiqaning mazmunini oson idrok etishga yordam beradi.

Shuning uchun musiqa o'qituvchisi qo'shiq aytganda yoki biror cholg'u asarini ijro etganda, uning tanish ovozi, sof ohangi, ifodali ijrosi, mimikasi va ishoralari o'quvchilarni maftun etishi lozim. Shundagina, o'quvchilarda bo'ladigan zavqlanish, ajablanish, quvonish, qayg'urish, o'ylanish kabi holatlarni kuzatish mumkin. yangi asar bilan ilk bor tanishtirishda o'qituvchining qisqa, lo'nda, mazmunli, qiziqarli kirish so'zi, musiqa tinglash jarayonida ham muhim ro'l o'ynaydi.



Musiqiy asarni tinglashdan oldin musiqa asari haqida o'quvchilarga ma'lumot berilsa, ular asarni to'liq idrok etishga harakat qiladilar.

Musiqiy asarni ikki-uch mashg'ulot davomida tinglash shart, chunki, har bir tinglashda bola uchun asarning yangi qirralari namoyon bo'ladi va unga nisbatan qiziqishi va muhabbati ortib boradi. O'quvchilar musiqani tinglash bilan birga o'z

tasavvurlaridagi ijobiy obrazlarni ham yaratadilar. Yaratgan hayoliy obrazlar yoki shirin hayollar og'ushidagi manzaralar, jonsiz narsalar haqida o'ylash va unga intilish hissi ham uyg'onadi, tinglash bilan bir maromda bu jarayon olib boriladi. O'quvchi musiqani tinglab musiqa haqidagi fikrlarini faqatgina o'z hayoliy kechinmalari orqali baholaydi.



Musiqqa o'quvchiga yoqishi yoki yoqmasligini mana shunday jarayonlarda ham aniqlash mumkin. O'quvchilarni tasavvur qilish va idrok etish hususiyatlari ulardagi tug'iladigan yangi g'oyalarda, maqsadlarni ham xosil qilishi mumkin.

Yildan yilga o'quvchilar o'z yoshiga, bilim va malakalariga muvofiq, musiqiy asarni to'la idrok etishga qodir bo'ladilar. Shu bilan birga milliy kuy va qo'shiqlarimiz, estrada musiqalarimiz, zamonaviy musiqalarimiz bilan birga sharq va yevropa mumtoz musiqalari, zamonaviy ohanglarini ham tinglatib borish, o'quvchilarni ma'naviy dunyoqarashini rivojlanib borishi uchun xizmat qiladi. O'quv yili davomida o'quvchilar 12-14 ta asar tinglaydilar.

Musiqali ritmik harakatlar bajarishga doir metodik tavsiyalar

O'quvchilarning aqliy, nafosat va jismoniy rivojida raqs, musiqali o'yinlar va musiqaga mos harakatlar bajarish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda musiqqa madaniyati darslarida, musiqaga mos harakatlar bajarish quyidagi vazifalardan iborat:

- o'quvchilarning musiqiy o'quvi, ayniqsa, xotirasi, ritm tuyg'usi musiqaga mos harakatlar yordamida yaxshi rivojlanadi. Har qanday harakat turi musiqiy asarning sur'ati va ritmi ostida bajariladi, harakat bilan bog'liq bo'lgan musiqiy ohanglar bola xotirasida turg'un saqlanadi;

- raqs va musiqiy harakatlar bolada harakatchanlik, chaqqonlikni rivojlantirib, qomatining to'g'ri o'sishiga va badanini chiniqtirishga katta yordam beradi;

- musiqiy asarlar o'quvchilarda turlicha emotsional hislar uyg'otib, turlicha kayfiyatlar hosil etib, ularning ongida o'ziga xos obrazlar yaratadiki, o'quvchilar asar mazmunini turli harakatlar va ishoralar bilan ifodalashga harakat qiladilar.

Demak, musiqaga mos harakatlar o'quvchilarning aqliy va nafosat qobiliyatini rivojlantirish bilan birga irodasini ham rivojlantiradi. Masalan, marsh – o'quvchida g'ayrat va tetiklikni, raqs – ajoyib ichki his-tuyg'ularni, kechinmalarni hosil etib, raqsga tushishga undaydi va zavqlantiradi. Musiqiy asarlardan marsh, raqs va o'yinlar o'quvchilarga tez ta'sir etadi, shuning uchun ham quvnoq raqs, qiziqarli musiqali o'yinlar har bir o'quvchining e'tiborini o'ziga tortadi.

Musiqqa madaniyati darslarida bajariladigan o'yinlar asosan ikki turga bo'linadi:

1. Qo'shiqning mazmuniga mos musiqali ritmik o'yinlar.

2. Raqslar.

1. Qo'shiq mazmuniga mos musiqiy-ritmik harakatlar qo'shiqning badiiy mazmuni, xarakteri va ifoda vositalariga mos tushishi shart. Qo'shiq mazmuni esa, ularning hayotiy tajribalarida, tabiat va hayvonot olami bilan munosabatlarida, xalq bolalar o'yinlarida o'z aksini topadi;

2. Raqslar vositasida o'quvchilar milliy va qardosh xalqlar raqs harakatlari va musiqasi bilan yaqindan tanishadilar. Raqs musiqasiga mos milliy harakatlarni bajaradilar. Bunda o'quvchilarning dunyoqarashi, aqliy va nafosat tarbiyasi, musiqiy xotirasi, ritm tuyg'usi va diqqat-e'tibori rivojlanadi.

Shunday qilib, musiqiy o'yinlar o'z maqsad va vazifalariga ko'ra, didaktik o'yinlarga mansub bo'lib, asosan ritmik harakat vositasida ijro etilishi bilan ifodalanadi. O'quvchilar cholg'u asboblari jo'r bo'lishga doir metodik tavsiyalar musiqqa madaniyati darslarida bu faoliyat turi eng qiziqarli mashg'ulotdir.

Musiqa madaniyati darslarida, o'quvchilar cholg'u asboblardan foydalanish ijobiy natijalar berish bilan birga o'quvchilarning darsga intiluvchanligini, qiziqishi va musiqiy uquvini (xotirasi, ritmni his etish tuyg'usini, nutqini) o'stiradi. O'zbek milliy raqslari bilan birga sharq va yevropa raqslar insonning jismoniy sog'ligini o'stirish bilan birga ahloqiy va madaniy mezonlarni ham rivojlanishi uchun xizmat qiladi. Har bir millatning milliy va zamonaviy raqs elementlarini bilishga va uni o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini uyg'otish, ularni san'at durdonalarini hurmat qilish kabi tarbiyaviy jixatlarini shakllantirishdan iboratdir.

Xulosa

Mustaqillik yillarida o'zbek xalqi nafaqat siyosiy mafkuraga balki, milliy mafkuraga ham erishdi. Xususan, o'zligiga, tiliga, diniga, erkiga, milliy qadriyatlari, urf-odatlar va an'alariga erishdi. Kadrlar tayyorlash milliydasturida ta'limning maqsadi-ijodkor, ma'naviyatga boy shaxsni shallantirish ekanligi belgilab berildi. Shu bilan birga, **“Musiqa san'ati va madaniyati”** o'quv fanining asosiy maqsadi: o'quvchilarda hayot va san'atning go'zalligiga qiziqish uyg'otish, milliy qadriyatlar bilan tanishtirish, ijodiy faoliyat va tasavvurni rivojlantirish deb hisoblandi.

O'quvchilar o'quv jarayonida ham tarbiya ham ta'lim berish jarayonlari amalga ohiriladi. Bu o'rinda A. Avloniyning quydagi bildirgan so'zlarini tadbiiq etish va also unga befarq bo'lmaslik o'rinli deb bilaman. **“Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo sadoqat, yo falokat masalasidir”**. Musiqamizning tarixi, mumtoz ijrochilarimiz cholg'ularimiz, sozandalarimiz tarixi, musiqaning hayotiyliigi, janrlari, musiq tuzilishi, shakli, musiqaning mahalliy uslublari, sharq xalqlari mumtoz musiqasi, orkestrlar haqida xor jamoalari haqida yevropa kompazitorlari haqida bolalar bastakorlari haqida kino musiqasi, sahnaviy musiq va estrada musiqasi haqida bilimlarni egalladilar. O'zbekistonning birinchi Prezidenti I.A. Karimovning musiq haqidagi bildirgan quyidagi fikrlari taxsinga loyiq deb bilamman.

«Musiqa sadolari qaysi xalq, yoki millat tamonidan ijro etilmasin, eng ezgu, yuksak va nozik insoniy kechinmalarini ifoda etadi» degan edilar.

Darhaqiqat, turli millatlarning musiqalarini tinglab, undan zavq olib, insoniy kechinmalarimizni anglay olishimiz oson kechadi. Musiqa madaniyati fanida, o'zbek musiq madaniyati bilan birga jaxon musia madaniyati haqida ham bilim va malakalarni berish o'quvchilarni ma'naviyatini, madaniyatini yuksaltiradi biroq, ommaviy madaniyatga qarshi kurashishda yoshlarni ma'naviy va madaniy oziqasini boyitishda estetik fanlar katta ahamiyatga egadir. O'quvchilarni maktabgacha ta'lim va umumiy o'rta ta'lim muassasalarida musiq madaniyati fanini o'qitilishini to'g'ri yo'lga qo'yish, milliy qadriyatlarimizdan yiroqlashtirib boradigan yengil-yelpi va saviyasi tor, ahloq-odob mezonlariga to'g'ri kelmaydigan g'arb musiqalarini salbiy jixatlarini o'quvchilarga yetkazishda ularni pisixologig jarayonlaridagi salbiy jixatlarini ko'rsata bilish, insoniy fazilatlatga yod bo'lgan odatlardan yiroqlashtirishda o'zini o'zi boshqarish prosesini shakllantirish, ularning ongiga singdirish,



yosh avlodga milliy va zamonaviy ta'lim va tarbiya berish jarayonlarida, albatta, buyuk allomalarimizni o'g'itlari, ilmiy kitoblari, yaratgan musiqiy asarlari orqali targ'ibot va tashviqot ishlarini olib borish maqsadga

muvofig bo'ladi.

Yoshlarning taqlid qilish qobiliyatlari bolaligidanoq shakllana boshlaydi. U salbiy yoki ijobiy obrazlarning qirralarini o'zida mujassamlashtirishga harakat qiladi. O'ziga yoqqan salbiy yoki ijobiy obrazlarni bir-biridan ajrata olish va uning oqibati nimalarga olib kelishi haqida emas, balki, eng avvalo, o'zidagi qiziqish va hoxishiga qarab tanlaydi. Bu esa yoshlarning ongini zaharlash, ma'naviyatini qashshoqlashib borishi uchun xizmat qiladi.

Har bir pedagog to'garak mashg'ulotlarini hamda dars o'tish jarayonlarida pedagogika-psixologiyaga yondashgan xolda, eski metodlardan voz kechib, yangilikka intilishi, bugun o'tgan darsi kechagi o'tgan darsidan mutloqo farq qilishi, o'quvchilarni u yoki bu jarayonlardagi qobiliyatlarini aniqlash va baholash mezonida rag'batlantirish, imkoniyatlar eshigini ochib berishga katta ahamiyat berish lozim.

Musiq madaniyati darsida asosan, cholg'u asboblardan keng foydalanish bilan birga, zamonaviy ped-texnologiyalar asosida o'quv materiallardan, ko'rgazmali tasvirlardan foydalanish o'quvchining keng ko'lamli bilim olishi uchun xizmat qiladi. Bugungi kunda turli fanlarni o'qitilishida multimediyalardan, slaydlardan keng foydalanish ommalashdi.



O'quvchilar bilim olishida nafaqat nazariy balki, amaliy jarayonlarda ham malakalarini boyitishlari uchun har bir pedagog o'z ustida ishlashi lozim. Barcha madaniyatli jamiyatning xususiyatini, unin mezon va mazmunini ziyolilar belgilaydi. Ziyolilik bu – nafaqat keng bilimga ega

bo'lishni, balki, tashabbuskorlikni, javobgarlikni, ahloqiy-estetik jur'atni va tug'ma iste'dodni bildiradi.

Madaniyatning me'yoriy rivojlanishi uni asrab kelgusi avlodlarga meros qilib qoldirishni bildiradi. Biroq, bu jarayon oddiy va bir xilda kechmaydi. Ma'naviy qadriyatlarining mundariyasi, ularni qayta qurib va qayta baxolash ularni o'z aro bog'liqlik usullari, munosabat tiplari, bilimlarni asrash va uzatish, hayot me'yorlari voqelikni estetik idrok qilish xususiyati o'zgarmasdan qolmaydi, ular uzluksiz xarakterda bo'ladi.



Yoshlarni yangicha muhitda tarbiyalash, ularning ongiga milliy mustaqillik g'oyalarini chuqurroq singdirish, ajdodlarimiz yaratgan qadriyatlar mohiyatini anglash ayniqsa "ommaviy madaniyat" nomi bilan yoshlarni madaniyatsizlikka yetaklovchi salbiy hurujdan himoya qilish vositasi sifatida musiqa darslarining o'rni beqiyosdir.

Bo'lajak musiqa pedagoglari chinakkam raqobatbardosh, dunyo ta'lim standartlari talablariga javob bera oladigan kadrlar bo'lib yetishishi uchun ular avvalo o'zlari egallayotgan kasbni puxta egallashlari lozim bo'ladi. Demak ular o'z ish faoliyati davomida musiqa darsini yuqori saviyada tashkil qila olishlari, darsning xar bir faoliyat turlari mohiyatlarini to'la

tushuna olishlari, bu sohadagi bilimlarni amaliyotda qo'llay bilishlari zarur va shart.

Bugungi zamon pedagogi faqat avvalgi o'zigacha ma'lum bo'lgan dars o'tish uslublari bilan cheklanibgina qolmay, bilaks yangidan-yangi ilg'or pedagogic texnologiyalarni darslarga tadbiiq etishi, tashabbuskor, novatar bo'lishi davr talabi bo'lib qoldi. Biz qo'l urayotgan **"Umumta'lim maktablari 6- sinf II-choragida musiqa savodxonligi"** mavzusidagi bitiruv malakaviy ishida darsining bu faoliyat turning yanada qiziqarli, yanada samarali bo'lishi uchun nimalar qilmoq zarur bo'ladi degan savolga javob topishga xarakat qildik.

Ma'lumki O'rta Osiyoda musiqa fan sifatida faqat XX asr boshlaridan boshlab o'qitila boshladi. To shu davrgacha musiqaning nazariy masalalari, allomalarimiz Abu Nasr Farobiy, Abu Ali Ibn Sino, Umaviy, K.Xorazmiy va yana ko'plab olimlar tomonidan risolalar orqali yaratib berilgan edi. Lekin ularni amaliyotga tadbiiq etilmadi. Buning boisi musiqaning amaliy qismi faqat ustoz-shogirt deb nomlangan tor doiradagini rivojlanib bordi. Faqat takidlaganimizdek XX asr 30-40 yillardagina musiqa fan sifatida barcha uchun o'rganishga joriy qilindi. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda musiqaning nazariy qismi haqidagi ajdodlarimiz qoldirgan ulkan merosni bugungi kun musiqa nazariyasi yutuqlari bilan taqqoslash hamda ularni bog'lash ayniqsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

2017-yil 6-aprelda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 187-sonli qaroriga muvofiq barcha fanlar qatorida musiqa madaniya fanini o'qitilishidagi yangi maqsad va vazifalarni belgilab qo'yildiki, unda umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'quvchilarga musiqa madaniyati fanini o'qitishning maqsad va vazifalarini amalga oshirishda dars jarayonlarida innovatsion uslarni keng joriy etish, bilim, malaka va ko'nikmalarini xosil qilish shuningdek, ularni baxolash tizimini to'g'ri yo'lga qo'yishdan iborat.

Innovatsion texnologiya turini tanlash dars va mashg'ulotlarda qaysi darajadagi bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish nazarda tutilganligiga bog'liqdir. O'qitish jarayonida qo'llaniladigan usullar juda ko'p.

Bu usullar o'quvchilarning yosh xususiyatlariga, ko'pchilikni o'qitishga yoki individual ta'lim berishga mo'ljallangan bo'ladi.

Darsning har bir elementini amalga oshirishda uning mohiyatini bolalar bilimi va hayotiy tajribalariga asoslanib tushuntirish lozim. Musiqa ta'limi mazmunini yangilash turli yo'llar bilan amalga oshirilishi mumkin, lekin xaqiqiy yangilanish, musiqa o'qituvchisining musiqa mashg'ulotlarida badiiy - pedagogik jarayonni yangicha tashkil qilishga bog'likdir. Masalan: har bir musiqa o'qituvchisi «Ofis» standart turkumidan dastur paketlarini engil o'zlashtirishi mumkin. Ulardan biri «MS Power Point» ustida to'xtab o'tamiz. Bu dastur hech qanday ortiqcha sarf - xarajatlarsiz musiqa fani bo'yicha taqdimot - prezentatsiya tayyorlash imkonini beradi.

Ushbu o'quv qo'llanma «musiqa va uni o'qitish metodikasi» fanidan namuna sifatida yaratildi. Musiqa san'ati — nafas tarbiyasining muhim omili bo'lib, yosh avlodni kamolotga yetishishi uchun ta'sir etuvchi jarayon. Bu jarayon maktabdan boshlab shakllanadi va yosh avlodning ichki dunyosini boyitib, butun hayoti mobaynida unga hamroh bo'lib boradi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. G.M. Sharipova, D.F. Asamova, Z.L. Xodjayeva. Musiqa o'qitish nazariyasi metodikasi va maktab repertuari. O'quv qo'llanma. Toshkent. 2014.
2. T. Ortiqov. Musiqa o'qitish metodikasi. O'quv uslubiy qo'llanma. Toshkent. 2010.

3. G. Sharipova. Musiqa va uni o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. Toshkent. 2008.
4. D. Karimova. Musiqiy pedagogik mahorat asoslari. T. Iqtisod moliya. 2008.
5. R.J. Ishmuxammedov. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. T., Nizomiy nomidagi. TDPU. 2004-yil.
6. Mansurov A., Karimova D. 5-sinf «Musiqa» darslik. T., 2006.

